

SUD-TIBBIY EKSPERTIZA MATERIALLARI BO'YICHA TAN JAROHATLARI OG'IRLIK DARAJASINI BAHOLASH

Rasulova M.R.

PhD, dotsent

Xolmanov Sh.

Davolash ishi 4-kurs talabasi

Klinik fanlar kafedrası, Zarmed Universiteti

Muammoning dolzarbligi. Zamonaviy sanoatning, xususan yangi texnologiyalarning rivojlanishi munosabati bilan aholining mexanik omillar ta'siridan jarohatlanishi holatlari ko'paymoqda. Shu bilan birga, huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan jarohatlarni aniqlanishi, hosil bo'lish mexanizmi, muddati bilan bir qatorda, ko'pincha ularning og'irlik darajasini aniqlash masalasi qo'yiladi. Ish materiallari bo'yicha sud-tibbiy ekspertiza faqat uni tayinlagan organ (shaxs) tomonidan protsessual qonunchilikka va mavjud yo'riqnomaga muvofiq rasmiylashtirilgan materiallar taqdim etilgandagina o'tkaziladi.

Tadqiqot maqsadi: Mexanik shikastlanishlarda tan jarohatlari og'irligini yosh va jins aspektida baholash.

Tadqiqot materiallari va usullari: Material sifatida RSTEIAM Samarqand filialida o'tkazilgan tan jarohatlari og'irlik darajasini aniqlash bo'yicha 1468 ta ekspertiza xulosasi va tirik shaxslarni sud-tibbiy tekshirish dalolatnomalari xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari. 1468 ta holatni jins bo'yicha tahlil qilinganda erkaklar 629 tani (43%), ayollar 839 tani (57%) tashkil etdi. Yosh guruhlari bo'yicha taqsimot quyidagicha bo'ldi: 0-17 yosh – 201 ta holat (14%), 18-25 yosh – 396 ta holat (27%), 26-40 yosh – 621 ta holat (42%), 41-55 yosh – 167 ta holat (11,5%), 56 va undan katta yosh – 83 ta holat (5,5%). Huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan sud-tibbiy ekspertizalar o'tkazish bo'yicha qarorlar hududlar bo'yicha quyidagicha qayd etildi: Urgut tumani bo'yicha 364 ta holat (25%), Kattaqo'rg'on shaxar va tumani bo'yicha 656 ta holat (45%), Pastdarg'om tumani bo'yicha 448 ta holat (38%). Shikastlanishlarning kelib chiqish holatlari bo'yicha: ko'chada – 705 ta holat (48%), uyda – 963 ta holat (52%) qayd etildi.

Tan jarohatlari og'irlik darajasi bo'yicha 1125 ta holatda (76,5%) yengil, 193 ta holatda (13%) o'rta og'irlikdagi, 91 ta holatda (6%) og'irtan jarohati sifatida baholangan va 59 ta holatda (4,5%) tan jarohatlari aniqlanmaganligi qayd etildi. Jarohatlovchi vosita turi bo'yicha tahlil qilinganda o'tmas qattiq jismlar ta'sirida – 1365 ta holat (93%), o'tkir jismlar ta'sirida – 103 ta holat (7%) qayd etildi.

Xulosa. Shunday qilib, sud-tibbiy ekspertiza materiallari bo'yicha tan jarohatlari ko'pincha erkaklarda, asosan yosh, mehnatga layoqatli shaxslarda aniqlangan bo'lib, ko'p hollarda ko'cha jarohatlanishi natijasida o'tmas qattiq jismlar ta'siridan kelib chiqqan va og'irlik darajasi bo'yicha yengil tana jarohatlari sifatida baholangan.